

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	336
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения.....	339
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari.....	343
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	348
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari.....	351
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi.....	355
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari.....	359
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari.....	363
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	367
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari.....	371
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'ri.....	378
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv.....	382
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari.....	387
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	391
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	397
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	401
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	404
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi.....	408
<b>B.M.Qurbonova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar.....	411
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili.....	416
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'ri.....	420
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari.....	423
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'ri (Doira cholg'usi misolida).....	429
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	433
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari.....	439



UO'K: 738.8:738.6 738.2

## RISHTON KULOLCHILIK MAKTABINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ РИШТОНСКОЙ ШКОЛЫ ГОНЧАРНОГО ГОНЧАРА

## STAGES OF DEVELOPMENT OF RISHTON POTTERY SCHOOL

Mamurov Abdusalom Anvarovich 

Farg'ona davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

## Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda Rishtonda an'anaviy shakllar va naqshlarni izchillik bilan, to'laqonli qilib qayta tiklash, an'analarga so'zsiz rioya qilish o'rini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshinkor bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda. Naqshlar erkin rangtasvir usulida mo'yqalam bilan bajariladi. Ranglar ichida quvnoq havorang va feruza ranglarni oq ranga qorishtirib ko'proq foydalaniladi. Texnologiyasining takomillashtirilganligi va naqshining o'ziga xosligi tufayli Rishtonning sopol idishlari jahonda shuhrat qozonadi. Albatta, Markaziy Osiyoning hamma xalq amaliy san'atida ramz-belgilar mavjud. Bu ramziy belgilar umumiy qo'llangan va ular o'z navbatida falsafiy mazmunga ega. Rishton kulolchiligida qo'llangan belgilar ham shunday mazmunga ega. Masalan, bodomgul va qalampirni olsak, bu belgilar yorug'lik ramzi sifatida ko'riladi. Ikkinchi belgi esa qumg'ondir. Bu ramz suvga ishora sifatida qo'llangan bo'lib, ya'ni mazmunan tinchlik-xotirjamlik va osoyishta – tiniq hayot kechirish ma'nolarini beradi. Qumg'on (va yana bodomgul, qalampir va b.) ramzlari asosan laganlarda ko'p qo'llaniladi.

## Аннотация

Согласно статье, на смену последовательному и полному восстановлению традиционных форм и узоров в Риштоне приходят отдельные творческие инициативы, новые методы и расширение видов орнаментов. Узоры выполнены кистью методом свободной росписи. Среди цветов больше используются жизнерадостные оранжевые и бирюзовые цвета, смешанные с белым. Благодаря совершенствованию технологии и оригинальности рисунка керамическая посуда Риштона известна во всем мире. Конечно, символы есть во всех народных произведениях Средней Азии. Эти символические знаки обычно используются и они, в свою очередь, имеют философское значение. Такое же значение имеют символы, используемые в риштонской керамике. Например, если мы возьмем миндаль и перец, эти символы будут восприниматься как символы света. Второй признак – песок. Этот символ используется как ссылка на воду, что означает мир и мирную жизнь. На тарелках чаще всего используются символы песка (а также миндаля, перца и т. д.).

## Abstract

According to the article, individual creative initiatives, new methods and the expansion of types of ornaments are taking the place of consistent and complete restoration of traditional forms and patterns in Rishton. Patterns are made with a brush in the free painting method. Among the colors, cheerful orange and turquoise colors mixed with white are used more. Due to the improvement of technology and the originality of the pattern, Rishton's ceramic dishes are famous in the world. Of course, there are symbols in all the folk arts of Central Asia. These symbolic signs are generally used and they, in turn, have a philosophical meaning. The symbols used in Rishton pottery have the same meaning. For example, if we take almonds and peppers, these symbols are seen as symbols of light. The second sign is sand. This symbol is used as a reference to water, which means peace and peaceful life. Symbols of sand (and almonds, pepper, etc.) are mostly used on plates.

**Kalit so'zlar:** hunar, kulolchilik, spol, ustoz, rishton, loy, ustaxona, uslub.

**Ключевые слова:** ремесло, гончарное дело, спол, мастер, риштон, глина, мастерская, стиль.

**Key words:** craft, pottery, spol, master, rishton, clay, workshop, style.

## KIRISH

O'zbekiston hududida sopol buyumlar tayyorlash usuli deyarli bir xil bo'lsa ham, ularning shakl-shamoyili, bezatilishi, ayniqsa, rang, ya'ni angob, sirlashda bir-bir-biridan farqlanadi. Xususan, voha tomonlarda sopol buyumlarda ko'proq sariq, qizil kabi ranglar qo'llanilsa, vodiy sopolchiligida moviy ranglar ustuvorlik qiladi. 1960 yillarda yuqoridagi eslatib o'tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an'anaviy markazlar barham topa boshladi, cho'lda o'sadigan "gulyak" o'tidan olinadigan an'anaviy ishqorli sirga asoslangan ishlab chiqarish amalda to'xtab

qoldi. Rishton kulolchilik zavodi Farg'ona maktabi uchun xos bo'lmagan qo'rg'oshinning sir bilan qoplangan sopol buyumlarni ishlab chiqarishga o'tdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keramika (qadimgi yunoncha: keramos – tuproq) – tuproq (gil, kaolin) yoki anorganik moddalarni yuqori haroratda pishirish yo'li bilan olinadigan nometall materiallar va buyumlar. Barcha sohalarda: uy-ro'zg'orda (idish-tovoqlar), qurilishda (g'isht, cherepitsa, quvurlar, koshinlar, devorlarni bezash buyumlari), texnikada (radiotexnika, elektrotexnika, kosmonavtika), temir yo'lda, suv va havo transportida, haykaltaroshlik va amaliy san'atda keng tarqalgan. Tuzilishiga ko'ra, dag'al (notekis tarqalgan yirik zarralardan tashkil topgan, g'ovakligi 5-30%) va nafis (tekis tarqalgan mayda zarralardan tashkil topgan, g'ovakligi 5% gacha) turlarga bo'linadi. Dag'al keramika ko'pchilik qurilish materiallari, mas, g'isht va koshin, nozik keramikaga sopol, chinni, fayans, pyezo va segnetokeramika, ferritlar, kermetlar, ba'zi olovbardosh materiallar, yarim chinni va mayolika kiradi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, keramika, oksid, karbid, nitrid, silitsid, optik va boshqa turlarga bo'linadi. Keramik buyumlar tayyorlash uchun avval tuproq, kaolin, qum, dala shpati, metallurgiya va ba'zi sanoat chiqindilari sharli tegirmonda kukun holiga keltiriladi, suv qo'shib aralashtiriladi; olingan oquvchan holatdagi qorishma aralashtirgichli hovuzchalarga quyiladi; qoliplash usuliga qarab uni filtr-presslar yoki maxsus purkash qurilmalarida ma'lum miqdorgacha suvsizlantiriladi. Bezaklari jihatidan ham Rishton kulolchiligi doim yangilanib turishi bilan ajralib turadi. Ularda "chorbarg", uslub berilgan bodom guli-"bodomgul", "anorgul", "barg", anor mevasi-"anor", "sarv", o'simlik shoxlari-"islmiy" kabi mavzular ko'proq ommalashgan. Rishtonlik ustalar ilgargi mavzular ko'rinishini xiyol o'zgartirish usuli bilan yangicha tuzilma yaratish yo'lidan borib, bezakning yangi obrazlar timsolida sayqallashishiga erishishgan. Xususan, "bodomgul" va "anor" kabi mavzularning talqin qilinishida tez-tez o'zgarishlar qilib turishadi, ular bir tekisda zich qilib joylashtirilishi tufayli ko'pincha idishlarga bezak berishda yetakchi o'rin tutadi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Sopol buyumlar mahsulotni sifatli saqlashini ta'kidlash kerak. Masalan, go'sht tuzlansa, uning seli go'shtga zarar bermasdan quruq, tuzi o'zida qolgan holda saqlanadi, negaki go'sht selini sopol o'ziga tortib oladi. Qatiq ham sopol idishda sifatini yo'qotmagan holda muzdek saqlanadi. Rishtonnikiday tuproq boshqa hududlarda uchramaydi. Rishtonning ham hamma joyida emas, shaharning o'q chizig'idan 1 km uzoqlikdagi atrof hududlarida shunday tuprok uchraydi. Rishtonning boshqa hududlarida bunday tuproq mavjud emas. Ishqor tayyorlashga kelsak, uni hosil bo'lishi uchun ishqorli o'simlikdan foydalaniladi u esa faqat adirlikda o'sadi, shu o'simlik urug'ini honadonlarga olib kelib undirilganda o'simlik unmagani. Ushbu o'simlik tarkibida soda mavjud bo'lib, bu soda ishqor yaralishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarkibida mana shu modda borligi uchun uni hech bir hayvon yeya olmaydi. Ushbu o'simlikdan tayyorlangan ishqordan idishlarga jilo berishda foydalaniladi. Adirda o'sadigan "Guliyak" o'simligi ko'm-ko'k holda tutatib yondiriladi va undan hosil bo'lgan kul qayta ishlanganda juda ham mayda-mayda moviy shisha bo'laklariga aylanadi. Ushbu shisha bo'laklari tegirmonga tashlanib un qilinadi. Mana shu moviy un sopol buyumlarni moviy rangda sirlanishiga asos bo'ladi. Xorazm kulolchiligida ham ishqor ishlatilindi, lekin moviyli Rishtonnikidan farq qiladi. Ko'p hududlarda ishqor tayyorlashda sun'iy ranglardan foydalaniladi. Masalan, cobalt moddasidan lojuvard-moviy rang olinadi va zamonaviy kulolchilikda mis oksidi – medoks moddasidan foydalanilib sun'iy moviy rang olinmoqda. Lekin bunday ranglar qo'shilgan ishqorli siring sifati tabiiy usulda tayyorlangan sirdan farq qiladi.

### XULOSA

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish texnikasiga ko'ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg'ona maktabi (Rishton, G'urumsaroy), Buxoro-Samarqand maktabi (Samarqand, Urgut, G'ijduvon), Xorazm maktabi (Madir, Kattabog' qishloqlari). Har bir maktab o'z rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi ustalari, o'zigagina xos xususiyatlariga egaligi bilan farq qiladi. Chunonchi, Rishton kulolchilik maktabi boshqa maktablardan Xitoy kulolchiligiga monand moviy ranglar ustun bo'lishi bilan farq qiladi. Lojuvard rang bilan bezatilgan kulolchilik buyumlari "Yolg'on chinni" nomini olgan. Shuningdek Rishton kulolchiligida Cobalt-moviy, mis-yashil, temir oksidi-qizil, marganets-qora ranglaridan foydalaniladi. Rishton kulolchiligining eng asosiy yangiligi ishqorli sir tayyorlashning yo'lga qo'yilishidir. Bezaklaridagi uslubning nozikligi, murakkab tuzilgan nodir uslubdagi naqshlari, o'simliksimon naqshlarining moviy va yashil rangdaligi "Rishton moviy keramikasi" nomiga sazovor bo'lgan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Х.Умаров "Лойихалаш" ўқув-қўлланма. – Тошкент 2018.
2. Ахмедова, Н. Э. (2022). МУЪЖАЗ САНЪАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
3. Юлдашев Иброхимжон Тўйчиев "Миниатура" 2023, УО'К, КВК
4. Р.Ж.Сохибов "Амалий безак санати" 2023, УО'К, КВК
5. Анна Дудниченко "Керамика. Самое полное и понятное пошаговое руководство" 2021, Москва: Эксмо 272 б.
6. Н.В.Мурина "Основы производственного мастерства в художественной керамике" 2019, Красноярск: Сиб. Фед. Ун-т. 200 б.
7. Д.В.Ташхаджаева "Ашёлар технологияси" Камалиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн ин-ти - Тошкент: "Санъат" журнали нашриёти, 2017 -72 б.
8. Ю.Б.Цетлин "Керамика. Понятия и термины историко-культурного подхода" 2017. Москва.